

ABDULLA QODIRIY ROMANLARINI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANISHI

Xushanov Alisher Oydin o'g'li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Abstract. Ushbu maqolada, o'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy ijodi bilan bog'liqligi, juda ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borilganligi, Yozuvchi romanlarining o'ziga xos ichki qurilishi va murakkab tizimga asoslanganligi, hamda adib ijodini o'rganishda interfaol metodlarning qo'llanishi haqida fikr yuritilgan.

Keywords: Abdulla Qodiriy, interfaol metodlar, roman, dars, samaradorlik.

Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri xususida qayg'urdi. Zamondagi ijtimoiy kelishmovchiliklar adib qalbini iztirobga soldi. "o'tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, "tariximizning eng kir, qora kunlari" — yurti mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil "xon zamonlari"dan so'z ochib, buayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi.

Qodiriy ijodini o'rganishda biz interfaol metodlardan foydalangan holda keng o'rganmoqchimiz.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Abdulla Qodiriy ijodini o'rganishda interfaol metodlarning qo'llanishida samaradorlikka erishib kelinmoqda bunda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari va darslarni qay darajada o'rgananib kelishi tekshirilmoqda .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy . Tanlangan asarlar. Toshkent . sharq nashriyoti- matbaa.2014
2. XX. ASR O'ZBEK DABIYOTI . TOSHKENT 2005
3. Internet manbalari
4. WWW. ZIYO . COM .